



MEHNAT BOZORI SHARHI

2026-yil I chorak

Rezyume

- I chorak yakunlariga ko'ra, mehnat bozorida faollik yuqori darajada saqlanib, mart oyida vakansiyalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,8 foizga oshdi.
- Xizmatlar, chakana savdo, umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish sohalarida ishchi kuchiga bo'lgan talab yuqori darajada shakllandi.
- Muqobil manbalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yil I choragida faol rezyumelar soni 31,5 foizga oshib, 636 ming nafarga yetdi. Bu mehnat bozorida raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda.
- Iqtisodiyotda bandlikning o'sishi asosan xususiy sektor hisobiga ta'minlanib, 2025-yilda ushbu sektorda bandlik 5,2 foizga o'sdi. Bunda, bandlikning eng yuqori o'sishi xizmatlar sohasida qayd etildi.
- Ishsizlik darajasi pasayish tendensiyasini saqlab qolib, 2025-yil IV choragi yakunlariga ko'ra 4,8 foizni tashkil etdi.
- I chorakda o'rtacha nominal ish haqi 17,4 foizga, real ish haqi esa 9,5 foizga oshdi. Shu bilan birga, ish haqlari o'sishi bosqichma-bosqich mo'tadillashib bormoqda.
- Mehnat unumdorligi o'sish sur'atlarining sekinlashishi iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashda ekstensiv omillar, jumladan bandlikni kengaytirish ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, real ish haqlarining mehnat unumdorligiga nisbatan tezroq o'sishi iqtisodiyotda inflyatsion bosimlarning saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.


Mehnat resurslari

I chorak yakunlariga ko'ra, mehnat bozorida dinamik yuqori iqtisodiy faollik sharoitida shakllandi. Markaziy bank tomonidan ochiq manbalardan veb-skreping metodologiyasi asosida yig'ilgan ma'lumotlarga ko'ra, yanvar va fevral oylarida vakansiyalar soni yillik hisobda mos ravishda 4,5 foiz va 6,5 foizga kamaygan bo'lsa-da, mart oyida mehnat bozorida faollik sezilarli darajada tiklandi. Xususan, mart oyida vakansiyalar soni 15,4 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,8 foizga oshdi (1-rasm). Bu iqtisodiyotda ishchi kuchiga bo'lgan talab oshayotganini ko'rsatadi.

Xizmatlar sohasi va chakana savdo yuqori iste'mol faolligi hisobiga ishchi kuchiga talab yuqori bo'lgan sohalardan biri bo'lib qolmoqda. Qurilish sohasida esa bandlik dinamikasi investitsiya sikli va mavsumiy omillarga bog'liq bo'lmoqda. Shu bilan birga, I chorak davomida mazkur sohada mehnatga talab o'sish tendensiyasini namoyon qildi.


Umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish sohalarida mehnatga talab yuqori darajada shakllanib, keskin faollashuv kuzatildi.

1-rasm. Vakansiyalar soni dinamikasi, ming dona



Manba: ochiq veb-saytlar ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

2-rasm. Iqtisodiyotda bandlar soni o'zgarishi, foizda



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.


Muqobil manbalar ham O'zbekiston mehnat bozorida bo'sh ish o'rinlari soni o'sishda davom etayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ishchi kuchi taklifining o'sish sur'atlari mehnatga bo'lgan talab o'sishidan sezilarli darajada yuqori bo'lib qolmoqda. HeadHunter Uzbekistan ma'lumotlariga

ko'ra¹, 2026-yilning I choragida faol rezyumelar soni 31,5 foizga oshib, 636 ming nafarga yetgan. Ish qidiruvchilar sonining tezroq o'sishi natijasida mehnat bozorida raqobat kuchaymoqda, bu esa ish haqi dinamikasida ham aks etib, ish haqlarining o'sish sur'atlari barqarorlashayotganini ko'rsatmoqda.


So'nggi choraklarda iqtisodiyotda bandlikning barqaror kengayishi kuzatildi. Bandlik o'sishining asosiy qismi xizmatlar sohasi hisobiga to'g'ri kelib, bunda moliyaviy va sug'urta faoliyati, professional va texnik xizmatlar, shuningdek ma'muriy va yordamchi xizmatlar muhim o'rin tutdi (2-rasm). Ushbu yo'nalishlarda bandlikning o'sishi bozor infratuzilmasining rivojlanib borayotgani va iqtisodiyotda yangi yo'nalishlarga talab ortib borayotganini aks ettiradi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar davom etmoqda. Qishloq xo'jaligida bandlikning qisqarishi mehnat resurslarining boshqa tarmoqlarga qayta taqsimlanayotgani bilan izohlanadi. Sanoat va savdo sohalarida esa bandlik mo'tadil va barqaror o'sishni namoyon etdi.

3-rasm. Sektorlar kesimida bandlar soni o'zgarishi, foizda²



4-rasm. Ishsizlik darajasi, foizda²



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Bandlik shakllanishida asosiy o'rinni xususiy sektor egalladi. Davlat sektorining hissasi ijobiy saqlangan bo'lsa-da, uning ta'siri nisbatan cheklangan bo'lib qoldi (3-rasm). Bunda, 2025-yilda xususiy sektorda bandlik 5,2 foizga o'sib, umumiy bandlik o'sishiga 4,2 foiz band hissa qo'shgan

¹ <https://tashkent.hh.uz/article/34296>

² 2024 yil II chorak ma'lumotlari mavjud bo'lmaganligi sababli 3-rasm vaqt chizig'ining ikki qismida va 4-rasmida uzulish hosil bo'lgan.

bo'lsa, davlat sektorida mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 2,6 foiz va 0,5 foiz bandni tashkil etdi.

Mazkur jarayonlar fonida ishsizlik darajasi bosqichma-bosqich pasayib borib, 2025-yil IV choragi yakunlariga ko'ra 4,8 foizni tashkil etdi (4-rasm).

Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, 2026-yil I choragida mehnat bozorida korxonalarining xodimlarni yollash bo'yicha kutilmalari ijobiy saqlanib qoldi. Xususan, xizmatlar va savdo sohalarida bandlikning oshishini kutayotgan korxonalar ulushi ortib, ushbu tarmoqlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortganini ko'rsatdi. Sanoat sohasida esa kutilmalar asosan barqaror shakllanib, bandlikning qisqarishini kutayotgan korxonalar ulushi past darajada saqlandi. Umuman olganda, so'rov natijalari mehnat bozorida talabning barqarorligini va biznes faolligi bo'yicha ijobiy kutilmalar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda (5-rasm).

5-rasm. Korxonalarning xodim yollash bo'yicha kutilmalari dinamikasi

Qizil rang o'tgan yilning mos davriga nisbatan tegishli javoblar soni kamayganini, yashil rang esa ushbu javoblar soni oshganini anglatadi.

Javoblar	Tarmoq	2025												2026			
		yan	fev	mar	apr	may	iyun	iyul	avg	sen	okt	noy	dek	yan	fev	mar	
Oshadi	Sanoat	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Qurilish	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Xizmatlar	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Savdo	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
O'zgarmaydi	Sanoat	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Qurilish	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Xizmatlar	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Savdo	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
Kamayadi	Sanoat	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Qurilish	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Xizmatlar	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■
	Savdo	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Ish haqi dinamikasi


Ish haqi dinamikasida sohalar kesimida sezilarli farqlanish saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning tarmoqlarida mehnatga haq to'lashning barqaror o'sishi kuzatildi (6-rasm).

bandlik omilining hissasi ortib, mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari nisbatan past shakllandi.

7-rasm. Nominal va real ish haqi o'sish sur'atlari, foizda



8-rasm. Real ish haqi va mehnat unumdorligi o'sish sur'atlari, foizda



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Yuzaga kelgan holat iqtisodiy faollikni ta'minlashda ekstensiv omillar, avvalo bandlik va investitsiyalarni kengaytirish ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Mehnat unumdorligining pastroq o'sishi sharoitida ishlab chiqarish hajmining ortishi ko'proq qo'shimcha mehnat resurslarini jalb qilish hisobiga ta'minlanmoqda.

Ushbu sharoitda mehnat unumdorligining keyingi dinamikasi ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini oshirish, xodimlar malakasini oshirish, mehnat resurslarini yuqori samarali sohalarga qayta taqsimlash, shuningdek investitsiya faolligining ko'lami va sifatiga bog'liq bo'ladi.

Shu bilan birga, mehnat unumdorligi o'sishi va real ish haqlari o'sishi o'rtasidagi tafovutning kengayishi iqtisodiyotda inflyatsiyani oshiruvchi bosimlar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. So'nggi davrlarda ushbu bosim kengroq tus olib, real ish haqining mehnat samaradorligiga nisbatan tezroq o'sishi bilan izohlandi (8-rasm).


Pul o'tkazmalari dinamikasi va mehnat muhojirlari oqimi

Joriy yilning I choragida aholi harakatlanuvchanligi (mobilligi) o'sishda davom etdi. Ushbu davrda xorijga chiqqan O'zbekiston fuqarolari soni 1,63 mln nafarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,6 foizga oshdi. Bundan tashqari, joriy davrda havo yo'llari transportida tashilgan

yo'lovchilar soni sezilarli oshib, 2,25 mln nafarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32 foizga yuqori bo'ldi.


So'nggi mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yil I choragida Rossiyada patent asosida mehnat faoliyatini amalga oshirgan O'zbekiston fuqarolari soni 1,34 mln nafarni tashkil qildi (9-rasm). Bu o'tgan chorakka nisbatan 8,8 foizga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan esa 1,8 foizga kam bo'lib, mavsumiy omillar hamda tashqi mehnat bozori sharoitlaridagi o'zgarishlar bilan izohlanishi mumkin.

9-rasm. Rossiyada patent asosida ishlayotgan O'zbekiston fuqarolari soni, ming kishi



Manba: Rossiya davlat statistikasi federal xizmati

10-rasm. Turkiyada ruxsatnoma asosida bo'lgan O'zbekiston fuqarolar soni, ming kishi



Manba: Turkiya migratsiyani boshqarish Prezidentligi

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish jarayoni davom etmoqda.

Xususan, Turkiyaga migratsiya bo'yicha rasmiy ruxsatnomalar soni oshib bormoqda. Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiyani boshqarish organi ma'lumotlariga ko'ra, I chorakda bunday ruxsatnomalar soni qariyb 70 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14 foizga oshdi (10-rasm).

Janubiy Koreyada bo'lib turgan O'zbekiston fuqarolari soni ham I chorakda barqaror o'sishni davom ettirib, 99,6 ming nafarga yetdi.

Pul o'tkazmalari hajmi 2026-yil I choragida o'sish tendensiyasini saqlab qolib, 3,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13 foizga oshdi.

Pul o'tkazmalari tarkibida ham mamlakatlar kesimida diversifikatsiya jarayonlari davom etmoqda. Biroq, ushbu jarayonning sur'ati va davomiyligi tashqi mehnat bozorlari hamda asosiy hamkor davlatlardagi makroiqtisodiy sharoitlarga bog'liq bo'lib qoladi.

Xususan, 2026-yil I choragida Rossiyadan kelib tushgan pul o'tkazmalarining ulushi o'tgan yilning mos davridagi 77,6 foizdan 72,4 foizgacha pasaydi. Bu, asosan, yil boshidan patent to'lovlarining oshishi, rubl kursining nisbatan mart oyida qadrsizlanishi, hamda mehnat migratsiyasi yo'nalishlarining kengayishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, umumiy pul o'tkazmalarda Qozog'istonning ulushi 1 foiz bandga oshib 4,1 foizni, Yevropa davlatlarining ulushi 1 foiz bandga oshib 3,3 foizni, Janubiy Koreyani ulushi 0,6 foiz bandga oshib 4,1 foizni tashkil etdi. Boshqa davlatlar ulushi esa 2,6 foiz bandga oshib, 16,2 foizga yetdi.

© O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026-yil



Hujjatning elektron versiyasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-saytining “Tadqiqotlar” bo‘limining “Tahliliy materiallar” kichik bo‘limida joylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti:
www.cbu.uz

Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan tayyorlandi.

O‘z taklif va e‘tirozlaringizni quyidagi manzilga jo‘natishingiz mumkin:

E-mail: sinogamov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-22